

2019-yil yanvar oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Hozirgi kunda kuchayib borayotgan global tendentsiyalar va taqdim etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi xizmatlar sohasini iqtisodiyotning mustaqil sektoriga, yani jamiyatimizni "qon aylanish tizimi" sifatida to'ldiruvchi sektorga aylantirdi. Xizmatlar sohasini muhim ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bilan taqqoslash mumkin va funktsional jihatdan u bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadigan tarmoqlar va infratuzilma ob'ektlari kabi rol o'ynaydi.

Mazkur sektor xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

2019-yil 1-fevral holatiga ko'ra respublikamizda 221,5 mingta korxonalar va tashkilotlar xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, bu faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida (335,8 mingta) 65,9 % ni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-fevral holatida xizmatlar sohasida 193,1 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 32,9 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 9,0 %, tashish va saqlash - 6,3 %, axborot va aloqa - 3,4 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,1 % , boshqa turlarda - 45,3 % korxonalar va tashkilotlar o'rin egallagan.

2019-yil 1-fevral holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



● Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ● Sanoat ● Qurilish ● Xizmatlar

2019-yil 1-fevral holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (34,9 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,3 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 6,1 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 3,2 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 % ni tashkil etdi.


2019-yil 1-fevral holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 13043,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilsa, moliyaviy xizmatlar hajmining 871,5 mlrd. so'm, transport xizmatlari 807,2 mlrd. so'm, savdo xizmatlari 450,0 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatiladi. Ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi 2604,0 mlrd. so'mga oshdi .

Alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




2019-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	13043,4	115,7
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	714,0	95,6
moliyaviy xizmatlar	2289,0	158,0
transport xizmatlari	4068,2	117,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1703,7	100,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	360,9	103,5
savdo xizmatlari	3268,0	103,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	393,5	102,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	380,6	124,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	180,0	113,9
ijara xizmatlari	271,1	108,5
kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	216,7	104,4
shaxsiy xizmatlar	326,2	103,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	202,4	134,4
boshqa xizmatlar	372,8	101,7


Umumiy tarkibda transport xizmatlari ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida 31,2 % ni tashkil etadi. Shu bilan birga, savdo xizmatlari 25,0 %, moliyaviy xizmatlar 17,5 % hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,5 % bilan eng yuqori ulushlarni egallaydi.

2019-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Respublikamizda olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 158,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (134,4 %), ta'lim sohasida (124,6 %), transport xizmatlari (117,0 %), sog'liqni saqlash sohasida (113,9 %) qayd etildi.


2019-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar oyida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sishi 30,5 % ni, moliyaviy xizmatlar - 27,9 % ni, sog'liqni saqlash sohasida - 7,5 % ni, ta'lim sohasida - 5,7 % ni tashkil etgan.

Transport xizmatlarining asosiy qismi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish hisobiga to'g'ri keladi. Bu transportning harakatchanligi hamda havo va temir yo'l transporti bilan taqqoslaganda xizmatlar narxining nisbatan arzonligi bilan izohlanadi. Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 41,9 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar oyida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



2019-yil yanvar oyida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining ulushi 27,5 % ni tashkil etdi. Transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 13,2 % ni tashkil etdi.

Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 10,1 % ni tashkil etdi.

Yordamchi transport faoliyatining transport xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 7,3 % ga yetdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 3268,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 25,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 450,0 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahri (1071,8 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (297,1 mlrd. so'm), Farg'ona (258,3 mlrd. so'm), Samarqand (251,5 mlrd. so'm), Andijon (218,5 mlrd. so'm) va Qashqadaryo (190,3 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.


2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi



Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyatida kuzatildi. Ushbu hududdagi savdo xizmatlari hajmi 51,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo xizmatlari bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar oyida uning ulushi 69,6 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %




- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 23,4 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 7,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 2289,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 158,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, %



O'sish sur'atlarining keskin o'sishi sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi.

Moliyaviy xizmatlarning keskin o'sishi Jizzax (218,1 %), Toshkent (208,8 %) va Sirdaryo (203,3 %) viloyatlarida kuzatildi.

Toshkent shahrida nisbatan pastroq o'sish sur'ati qayd etildi - 141,4 %.

Ma'lumot uchun: Moody's Investors xalqaro reyting agentligi O'zbekistonga uzoq muddatli "B1" darajali emitent reytingini berdi.

Moody's Investors – dunyo mamlakatlarini o'z to'lov qobiliyatiga muvofiq baholash bilan shug'ullanuvchi nufuzli reyting agentligi. **Standard & Poor's va Fitch Ratings** bilan bir qatorda, bu agentlik xalqaro reyting agentliklarining "yirik uchtalik" giga kiradi.

Mazkur agentlik ma'lumotlariga ko'ra, reyting bo'yicha prognoz barqaror. **Moody's** shuningdek, O'zbekistonning obligatsiyalar chiqarishini ham "B1" darajasida baholadi.

"Barqaror" prognozi agentlik ekspertlarining taxminlariga ko'ra, O'zbekiston yaqin va o'rta muddatli kelajakda xavflar balansini saqlab qolishini aks ettiradi.

(<https://www.uzdaily.uz>)

Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar oyida ta'lim sohasida xizmatlar hajmi 380,6 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 24,6 % ni tashkil etdi.

Ta'lim xizmatlari bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari Xorazm viloyatida - 175,0 % qayd etildi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasida xizmatlarning o'sishi Buxoro (63,8 %), Sirdaryo (33,2 %), Farg'ona (21,1 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (31,1 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar oyida hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati



Ushbu davr mobaynida yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi 360,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2018-yil yanvariga nisbatan o'sish sur'ati 103,5 % ni tashkil etdi va hajmi 51,0 mlrd. so'mga oshdi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 83,3 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 16,7 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng katta hajm Toshkent shahrida 149,7 mlrd. so'm qayd etildi. Eng kichik hajm esa Sirdaryo viloyatida kuzatildi - 4,2 mlrd. so'm.

2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	13043,4	115,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	389,6	117,8
viloyatlar:		
Andijon	667,2	110,0
Buxoro	542,0	111,0
Jizzax	270,4	116,4
Qashqadaryo	581,3	108,4
Navoiy	317,3	113,1
Namangan	512,8	110,7
Samarqand	823,7	107,4
Surxondaryo	467,1	112,9
Sirdaryo	167,6	115,9
Toshkent	963,5	114,1
Farg'ona	779,1	111,6
Xorazm	381,0	114,2
Toshkent shahri	4149,6	114,4

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (4149,6 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati 114,4 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar oyida eng yuqori o'sish sur'atlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (117,8 %), Jizzax (116,4 %) va Sirdaryo (115,9 %) viloyatlarida qayd etildi.


2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Samarqand (107,4 %), Qashqadaryo (108,4 %), Andijon (110,0 %) va Namangan (110,7 %) viloyatlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan milliy va mahalliy manfaatlardan kelib chiqqan holda oqilona foydalanishga bog'liq.

2019-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %




Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Toshkent shahri (31,8 %), Toshkent (7,4 %), Samarqand (6,3%), Farg'ona (6,0 %) va Andijon (5,1 %) viloyatlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,4 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlariga va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,0 %) to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 395,8 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 113,7 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Toshkent shahrida 1668,0 ming so'mdan Qashqadaryo viloyatida 182,7 ming so'mgachani tashkil etadi.

2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Shu bilan birga, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Qoraqalpog'iston Respublikasida (16,1 %), Jizzax (14,2 %), Sirdaryo (14,0 %) Toshkent (12,8 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (12,4 %) kuzatildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Samarqand (105,3 %) va Qashqadaryo (106,3 %) viloyatlarida kuzatildi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholi uchun munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichi hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, past sifat va xizmatlarning etishmasligi, zamonaviy xizmat ko'rsatishning yo'qligi insonlarning yashashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, yuqori sifat va xizmatlarning turli xilligi odamlarning salomatligi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, bo'sh vaqtni ko'paytirishga yordam beradi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

Mas'ul: Q.Berdiqulov

71-230-80-59

71-230-80-60